

QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL USULLARNING SAMARADORLIGI

Kuchkarova Dilnoza Burxoniddinovna

Masofaviy ta'lim Psixologiya 25-09 talabasi

Kokand Universiteti Andijon filiali

Xalimjanov Abduqunduz Rahimjon o'g'li

“Kompyuter Injiniringi va raqamli texnologiyalar”

Kafedra o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17539058>

Annotatsiya. Tashqi ijtimoiy muhit ta'sirlariga berilishi, ijtimoiy-axloqiy me'yor va qoidalarini o'zlashtirishga moyilliklari, o'zlashtirganlik darajalarini ifodalovchi jarayon, interfaol o'qitish “ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, shuningdek, o'qituvchi ta'lim jarayonida interfaol ta'lim yordamida o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqish olish kabi sifatlarni shakllantirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Qobiliyatni rivojlantirish, interfaol usullar, o'z – o'zini nazorat qilish, tanqidiy fikrlash

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlash va kreativ yondashuvni shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. An'anaviy o'qitish metodlaridan farqli o'laroq, interfaol o'qitish usullari o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi, ta'lim jarayonini ikki tomonlama faol muloqot asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Interfaol metodlar orqali o'quvchilar bilimlarni tayyor shaklda emas, balki muhokama, izlanish va amaliy faoliyat natijasida egallaydilar. Shuning uchun ham, bu usullar XXI asr ta'limining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. “Interfaol” (lotincha “inter” – o'zaro, “actio” – harakat) so'zining o'ziyiq usullarning asosiy tamoyilini ifodalaydi — ya'ni, o'quvchilarning dars jarayonida o'zaro faol hamkorligi va fikr almashuvi. Interfaol metodlar ta'limni faqat bilim berish jarayoni emas, balki shaxsiy rivojlanish, ijtimoiylashuv va muammo yechish qobiliyatini rivojlantirish vositasi sifatida ko'radi. Bu usullar konstruktivistik pedagogika nazariyasiga asoslanadi, ya'ni bilim – bu tayyor mahsulot emas, balki o'quvchining o'zi tomonidan shakllantiriladigan jarayon, degan g'oya asosida quriladi. Interfaol metodlar turlicha shakllarda bo'lib, har biri o'ziga xos pedagogik maqsadga xizmat qiladi. Quyida keng tarqalgan ba'zi interfaol usullar keltiriladi: “Aqliy hujum” (Brainstorming): Guruhda erkin fikr aytish orqali muammoni hal qilishga harakat qilinadi. Ijodiy tafakkurni rivojlantiradi, o'quvchilarning ishtirokini kuchaytiradi Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro'yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta'lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o'qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda. Pedagog olimlardan O.Jamoliddinova, O.Musurmonova, M.Urazova, N.Egamberdieva, E.Yuzlikaeva, Sh.Sharipov, A.Umronxo'jayev, A.Valiyev, Ruziev E.I, Ashirboev A.O, Sh.Shodmonovalarning ilmiy izlanishlarida ta'lim oluvchilarda kreativlik

qobiliyatlarini rivojlantirishning bo'lajak mutaxassislarni kasbiyinnovatsion tayyorgarligini shakllantirishdagi o'ziga xos jihatlari, kreativlik sifatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi, shuningdek, ta'lim oluvchilarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish yo'llari va shakllari, mavjud pedagogik shart-sharoitlari, didaktik ta'minoti, shuningdek pedagogik kreativlik mazmuni yoritib berilgan. Innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida ta'lim oluvchilarda o'z-o'zini ijodiy faollashtirish, kreativ ishlanmalar (mahsulotlar)ni yaratishga xizmat qiluvchi shaxsga yo'naltirilgan erkin ta'lim muhitini tashkil etish A.Abduqodirov, N.Azizxodjaeva, U.Begimqulov, J.Yo'ldoshev, Yu.Kruglova, I.Ridanova, V.Slastenin, N.Sayidahmedov, O'.Tolipov, G.Chijakova, B.Xodjaev, Ya.G'afforov, M.Tilakova, S.Toshtemirovalarning ilmiy tadqiqotlarida asoslangan. Kreativlik termini angliya –amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

Bundan tashqari, interfaol metodlarni qo'llash pedagoglarga darslarni individual yondashuv bilan tashkil etish, o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, ularni moslashtirilgan vazifalar bilan ta'minlash imkoniyatini beradi. Shu orqali pedagoglar ta'lim jarayonining sifatini oshiradi va o'quvchilarning o'zini namoyon qilish imkoniyatini kengaytiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, interfaol metodlar samaradorligi ularni to'g'ri va tizimli qo'llashga bog'liq. Agar metodlar dars maqsadiga mos va pedagogik yondashuv bilan uyg'unlashtirilsa, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari sezilarli darajada rivojlanadi. Shu bilan birga, interfaol metodlar o'quvchilarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, guruhda hamkorlik qilish va muammolarni hal qilish tajribasini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlarning qo'llanilishi nafaqat ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirish, balki o'quvchilarning umumiy akademik natijalarini oshirish va ular nihayotga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, pedagogik jarayonda interfaol metodlarning keng qo'llanilishi o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda strategik vosita hisoblanadi. Talabalar dars mashg'ulotlariga o'zlari uchun aniqlab olishlari kerak bo'lgan ko'pgina ijodiy savollar bilan keladilar. Ilmga erishilgan muvaffaqiyat har qanday talabani, ayniqsa, fanga mehr qo'ygan o'smir yigit va qizlarni ruhlantiradi. O'qishdagi ruhiy intilish o'z kuchi hamda qobiliyatlariga ishonch hosil qildiradi. Mustaqil ishga faollik va ijodkorlikni uyg'otadi. Shuning uchun o'qituvchilar professional qobiliyatlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir etuvchi: o'quvchilarning qiziqishlarini rag'batlantirish va intizomlilik, faollik, mustaqillikni tarbiyalashda ularni shunday o'qitishlari kerakki, bunda har bir o'quvchining muvaffaqiyati hamma narsadan ustun tursin. G'oyalarning innovatsiyalarga aylanishini ta'minlaydigan va bu jarayonni boshqarish tizimini shakllantiradigan faoliyat bu innovatsion faoliyat hisoblanadi. Innovatsiya jarayoni rivojlanish bosqichlarining yana bir o'ziga xos xususiyati mavjud. Pedagogik tajribada pedagogik va psixologik metodlarda zamonaviy ta'lim metodlariga asoslangan innovatsiyalarni ijodiy qo'llash alohida o'qituvchilar ish faoliyatining boshlang'ich bosqichida namoyon bo'ladi. Mazkur innovatsiyalar tajribasi sinovdan o'tkazilib, ob'ektiv baholangandan so'ng ommaviy tarzda qo'llash uchun taqdim etiladi. Keng ommalashgan, ijobiy natijalarga erishish imkonini beradigan innovatsion usullardan foydalangan holda o'qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Pedagogik va psixologik metodlarga asoslangan innovatsiyalarni baholash mezonlarini bilish o'qituvchining pedagogik ijodning rangbarang shakllarini o'zlashtirishi uchun qulay sharoit yaratadi. Pedagogik innovatsiyalarning mazmuni, uni qo'llash metodlarini

bo'lajak o'qituvchilar tajribasiga singdirish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasasi hayotiga pedagogik innovatsiyalarni keng ko'lamda olib kirish uchun unda yangilik muhitini yaratish, muayyan axloqiy psixologik holatni shakllantirish, tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi chora tadbirlarni qo'llash talab etiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda interfaol metodlar zamonaviy o'qitish jarayonida talabalarning o'zaro, birgalikda, ya'ni, juftlikda, kichik guruha yoki katta guruhda o'quv materiallarini o'zlashtirish imkoniyatini ta'minlaydi. Interfaol metodlarni qo'llash nafaqat ta'lim jarayonida, balki ta'limdan tashqar sharoitda ham amalga oshirilishi mumkin. Bunga ko'ra talabalar o'zlariga topshirilgan vazifalarni komp'yuter texnologiyasi bilan muloqotda sherigi, guruhdoshlari bilan o'zaro onlayn muloqot asosida bajarish hamda BKMni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: "Nihol nashryoti, 2013 yil
2. Xodjaev B.X. Innovatsion ta'lim texnologiyalari modulidan ma'ruza matnlari. - T.:2015.
3. Yo'ldoshev Q. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
4. Toshboev Sh. Interfaol ta'lim metodlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. Ibragimov T. Faol ta'lim metodlari va ularning amaliy qo'llanilishi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.